

SHARTNOMA E - 5 / 1
himoyalangan elektron pochta xizmati kursatish bo'yicha

Qarshi sh.

«20» 01 2022 y.

Qashqadaryo viloyat hokimligi huzuridagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" DUK nomidan R.Djanmuradov, keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» bir tomondan va A. Bajaruvchi asosida faoliyat ko'rsatayotgan Bu. S. Bajaruvchi nomidan, keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi, ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida shartnomani tuzdilar:

ATAMA VA TA'RIFLAR

Himoyalangan elektron pochta (keyingi matnlarda - HEP) – bir elektron pochta qutisidan ikkinchi bir pochta qutisiga shifrlangan va elektron raqamli imzo bilan imzolangan xabarlarini jo'natish, qabul qilish imkonini beruvchi dasturiy-texnik vosita majmuasi;

Elektron raqamli imzo (keyingi o'rinlarda - ERI) – elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan imzo;

HEP foydalanuvchisi – xizmat vazifasiga ko'ra, avtomatlashtirilgan ish o'rnidan foydalangan holda elektron ma'lumot almashish harakatlarini amalga oshiruvchi Buyurtmachining vakolatli xodimi.

1. SHARTNOMA MAVZUSI

1.1. Mazkur shartnomaga asosan Bajaruvchi tomonidan Buyurtmachining **1 (bir) foydalanuvchisiga** E-XAT himoyalangan elektron pochta xizmatini ko'rsatadi, o'z navbatida Buyurtmachi ushbu shartnomaga muvofiq ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovni amalga oshiradi.

1.2. Buyurtmachining 1 (bir) nafar foydalanuvchisini HEPga qo'shishda, yoki HEPdan foydalanish muddatini uzaytirishda

- ERI sertifikatini beriladi

1.3. Buyurtmachi ushbu shartnomada belgilangan qoidalar va talablarga rioya qilish majburiyatini oladilar.

2. XIZMAT NARXI VA TO'LASH TARTIBI

2.1. Ko'rsatilayotgan xizmatning (1.1-band asosida) umumiy qiymati **310 000 (uch yuz o'n ming) so'mni** tashkil etadi.

Ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun shartnoma umumiy qiymatining 30% miqdoridagi to'lov Buyurtmachi tomonidan shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 kalendar kuni mobaynida oldindan to'lab beriladi. Shartnoma umumiy qiymatining qolgan 70% hisob-faktura va bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish shartnomasi imzolangan kundan boshlab 10 kalendar kuni mobaynida to'lab beriladi.

3. HUQUQ VA MAJBURIYATLAR

3.1. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

- taqdim etilayotgan xizmatlar bilan bog'liq savollar yuzaga kelganda maslahat va texnik yordam olish;

- HEP xizmatining nosozligi yoki sifatsiz taqdim yetilishi to'g'risida Bajaruvchini o'z vaqtida xabardor qilish, shuningdek ularni bartaraf qilishni Bajaruvchidan talab qilish;

- ERI kalit sertifikatining amal qilish muddati tugashidan kamida 2 (ikki) hafta oldin ERI kalitlar sertifikatini muddatini uzaytirish yoki yangilash to'g'risida Bajaruvchini xabardor qilish;

- HEP xizmatidan foydalanish uchun taqdim qilingan ERI kaliti sertifikatini to'xtatib turish, qayta tiklash yoki bekor qilish yuzasidan Bajaruvchiga murojaat qilish.

3.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

- Bajaruvchi tomonidan HEP xizmatidan foydalanish maqsadida ro'yxatdan o'tkazish va ulanish kabi majburiyatlar bajarilgandan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kuni ichida mazkur xizmatlar uchun amalga oshirilgan to'lovlar va shartnoma bajarilishiga oid hujjatlarni Bajaruvchiga taqdim etish. Ushbu shart bajarilmagan taqdirda, tegishli hujjatlar taqdim etilgunga qadar HEP xizmatidan foydalanish to'xtatiladi. Mazkur hujjatlar 1 (bir) oy ichida taqdim etilmasa, ushbu shartnoma avtomatik ravishda bir tomonlama bekor qilinadi va amalga oshirilgan to'lov Bajaruvchi daromadiga o'tkaziladi;

- foydalanuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish va ERIning sertifikatini berish yoki yangilash uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni taqdim etish va ularning to'g'ri (haqqoniy)ligini ta'minlash;

- ERI yopiq kalitiga kirishda buzilish yoki mumkin bo'lgan buzilish (kalitga ishonchni yo'qolishi) to'g'risida zudlik bilan Bajaruvchini xabardor qilish va ERI kaliti sertifikatini to'xtatish yoki bekor qilishni talab qilish;

- HEP foydalanuvchisining ERI kaliti sertifikatiga kiritilgan ma'lumotlarning o'zgarishi, shu jumladan Buyurtmachining tugatilishi yoki qayta tashkil etilishi to'g'risida Bajaruvchini xabardor qilish, shuningdek ilgari berilgan ERI kaliti sertifikatini tiklashni talab qilish;

- Buyurtmachi «E-xat» himoyalangan elektron pochta tizimidan reklama tusidagi ma'lumotlar, spam va zararli dasturlarni yuborish uchun foydalanishga haqli emas.

- Buyurtmachi «E-xat» himoyalangan elektron pochta tizimidan foydalanishda shaxsan javobgar bo'ladi.

3.3. HEP foydalanuvchisi majburiyati:

- ERI yopiq kalitini sir saqlash, uning yo'qolishi, ochilishi yoki ruqsatsiz ishlatilishining oldini olish uchun barcha choralarni ko'rish;

- ERI yopiq kaliti boshqa shaxslar tomonidan ishlatilayotgah yoki ishlatganligi aniqlanganda ERI yopiq kalitidan foydalanmaslik.

3.4. Bajaruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- Buyurtmachi tomonidan HEP tizimidan foydalanish uchun belgilangan hujjatlarni to'liq taqdim etmaganda, foydalanuvchilarni ro'yxatga olmaslik, ERI kalitlari va ERI kalitlari sertifikatlarini bermaslik;

- ERI kalit sertifikatining amal qilish muddati tugagan holatda, Buyurtmachining ERI kalit sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish yoki uni bekor qilish uchun bergan so'rovini rad etish;

- ERI kaliti sertifikatini uchun ishonchni yo'qotish holati aniqlanganda, asosli sabablarni ko'rsatgan holda Buyurtmachini xabardor qilib, ushbu ERI kaliti sertifikatini bekor qilish.

3.5. Bajaruvchining o'z vakolati doirasidagi majburiyatlari:

- to'lov amalga oshirilgan davr uchun HEP foydalanuvchilariga texnik yordam ko'rsatish;

- HEP tizimidan foydalanishda yuzaga keladigan nosozliklar va sifatsiz ko'rsatilgan xizmatlarni o'z vaqtida bartaraf etish;

- ERI kaliti sertifikatini berish jarayonida Bajaruvchiga ma'lum bo'lgan foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini oshkor etmaslik yoki bermaslik;

- HEP foydalanuvchilarining ma'lumotlarini oshkor qilmaslik, ERI kaliti sertifikatiga kiritilgan ma'lumotlar bundan mustasno;

- ERI kalit sertifikatidan keyinchalik foydalanish imkoniyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan faktlar Bajaruvchiga ma'lum bo'lgan taqdirda Buyurtmachini xabardor qilish;

- Buyurtmachining iltimosiga binoan bepul ERI kaliti sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish, yoki tiklash, shuningdek bekor qilish.

4. TOMONLAR MAJBURIYATLARI

4.1. Buyurtmachi va Bajaruvchi o'z zimmlariga olgan majburiyatlarni bajarmaganligi, yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

4.2. Mazkur shartnomaning 3.2 va 3.3 – bandlarida ko'rsatilgan majburiyatlar bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplash Buyurtmachi zimmasiga yuklatiladi.

4.3. HEP foydalanuvchisi tomonidan elektron hujjatlarga qo'yilgan imzolar uchun Bajaruvchining javobgarligi mavjud emas.

4.4. Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan noto'g'ri ma'lumotlar asosida kiritilgan ERI kaliti sertifikatidagi noto'g'ri ma'lumotlar tufayli yetkazilgan zararlar uchun Bajaruvchi javobgar bo'lmaydi.

4.5. HEP foydalanuvchisi tomonidan o'ziga birlashtirilgan ERLning yopiq kalitini saqlash qoidalariga amal qilmaganligi uchun Bajaruvchi javobgar bo'lmaydi.

4.6. Bajaruvchining aybi bilan yopiq kalitga ishonch yo'qolgan holda, Bajaruvchi Buyurtmachiga yetkazilgan moddiy zarar uchun javobgar bo'ladi, shuningdek Buyurtmachiga bepul yangi ERI kaliti sertifikatini beradi.

4.7. To'lov shartlari buzilganda, Buyurtmachi Bajaruvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4% miqdorida, ammo ushbu shartnoma qiymatining 50%idan ko'p bo'lmagan miqdorida ustama (penya) to'laydi.

4.8. Xizmat ko'rsatish (yetkazib berish) muddati buzilganda, Bajaruvchi kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4% miqdorida, lekin ushbu shartnoma qiymatining 50%idan oshmagan miqdorida ustama (penya) to'laydilar. Ustama (penya)ni to'lash Tomonlarni ushbu shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

5. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

5.1. Bajaruvchi va Buyurtmachi o'rtasida mazkur shartnoma yoki unga bog'liq holda kelib chiqadigan nizo yoki kelishmovchiliklarni, tomonlar o'zaro muzokaralari orqali hal qilishning barcha choralarini ko'radilar.

5.2. Nizolarni muzokaralar bilan hal qilishning iloji bo'lmagan taqdirda, ular qonunda belgilangan tartibda sudga ko'rib chiqiladi.

6. FORS - MAJOR

6.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmaydigan kuch), har qanday harbiy harakatlar, axborot xizmatlarini taqdim etish sohasidagi amaldagi qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar oqibatida ushbu shartnomani amalga oshirish, shuningdek, davlat organlari tomonidan ma'lumotlarni topshirish, berish va foydalanishda qo'yiladigan cheklovlar va boshqa holatlarda Buyurtmachi va Bajaruvchi mazkur shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik, yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydilar.

6.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan tomon 3 (uch) kun ichida bu haqda ikkinchi tomonni xabardor qilishi shart.

7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

7.1. Ushbu shartnoma g'aznachilikda ro'yxatdan o'tgan paytdan boshlab kuchga kirib, tomonlar uchun majburiy bo'ladi va 1 (bir) yil mobaynida amal qiladi.

7.2. Tomonlardan ixtiyoriy biri tomonidan ikkinchi tomonni yozma ravishda 15 (o'n besh) kalendar kun oldindan xabardor qilgan holda, shartnoma doirasidagi barcha hisob-kitoblar yakunlangach, mazkur shartnomani bir tomonlama bekor qilishi mumkin.

7.3. Pullik texnik xizmatlar ko'rsatish muddati tugagandan keyin bir oy mobaynida Buyurtmachi tomonidan keyingi davr uchun shartnoma asosida xizmatlardan foydalanish istagi bildirilmasa va to'lov amalga oshirilmasa, shartnoma avtomat ravishda bir tomonlama bekor qilinadi.

8. BOSHQA SHARTLAR

8.1. Ushbu shartnomaning barcha tijorat shartlari uchinchi shaxslar uchun maxfiy ma'lumot hisoblanadi.

8.2. Mazkur shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ular yozma ravishda tuzilgan, Tomonlar tomonidan imzolangan va muhrlangan taqdirdagina amal qiladi.

8.3. Shartnoma 2 (ikki) nusxada tuziladi va ulardan biri Buyurtmachiga, ikkinchisi esa Bajaruvchiga beriladi.

9. TOMONLARNING MANZILI VA BANK REKVIZITLARI

Bajaruvchi
Qashqadaryo viloyati hokimligi huzuridagi
«AKT rivojlantirish markazi» DUK

Buyurtmachi

Manzil: Qarshi sh, Mustaqillik ko'chasi 2-uy

Telefon: (75) 221-52-17


hisob raqam: 2021 0000 2047 3417 6001



MFO: 00150, Milliy bank Qarshi shahar filiali

INN: 206 977 429


OKED: 62010

Direktor  R. Djanmuradov





Manzil: Qarshi sh, Mustaqillik ko'chasi 2-uy
Telefon: 221-52-17
hisob raqam: 20210000204734176001
MFO: 00150
INN: 206977429
OKED: 62010



 m.o'. 